

ISSN: 2181-0850

DOI: 10.26739/2181-0850

WWW.TADQIQOT.UZ


TEACHER МУАДДИМ УЧИТЕЛЬ



Tadqiqot.uz



SPECIAL ISSUE



2020

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Boboyeva Rayxonoy Davronovna, Babanova Zarifa Baxtiyor qizi TA'LIM JARAYONIDA INNOVATION TECHNOLOGIYALARNING O'RNI.....	5
2. Bekzod Qarshiyev MUROD MUHAMMAD DO'STNING XARAKTER YARATISH MAHORATI.....	8
3. Maksudova Mavluda Muratxodjayevna TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA MARKETINGNI TADBIQ ETILISHI.....	13
4. Султонмуродова Фарангиз Акрамовна ОБ ИЗУЧЕНИИ ПРОДУКТИВНЫХ И НЕПРОДУКТИВНЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АФФИКСОВ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	16
5. Сирожов Отажон Орифжонович ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПРИ РАЗВИТИИ ВАЛЛЕОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	20
6. Xoliqov Lazizjon Maxmud O'g'li НАМЛНАТЛИК-BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI.....	25
7. Дилфуза Зарипова “ҚОБУСНОМА”ДА ҲИКОЯТЛАР ТАҲЛИЛИ.....	28
8. Hojiyeva Munavvar Akramovna ADABIYOT DARSALARIDA FANLARARO INTEGRASIYADAN FOYDALANISH METODIKASI (Z.M.BOBUR HAYOTI VA IJODI MISOLIDA).....	33
9. Мадаминова Гулзира Гуламкадировна ЎЗБЕКИСТОНДА ЧЕТ ТИЛИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАР ТИЛ КОМПЕТЕНТЛИГИННИГ ЖОРИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ.....	36
10. Abduzohirov Ravshan Hamdamovich, Turapova Mayram Axmat qizi TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH.....	43
11. Обидова Фарида Исмоиловна ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ ЎЗИНИ-ЎЗИ АНГЛАШНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	49
12. Ahmadjonova Munisaxon Abdumalikovna, Mirzanarova Mohira Yusupovna ADABIYOT - INSON QALBIGA YO'L.....	53
13. Сарсенбаева Райхон Маханбетовна ИҚТИСОДИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРАКТИВ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ.....	56
14. Адамбаева Наргиза Кадамбаевна ХОРАЗМ АДАБИЙ-ТУРКИЙ МАНБАЛАРИ Ю.Э.БРЕГЕЛЬ ТАЛҚИНИДА.....	62
15. Maksudova Mavluda Muratxodjayevna “TA'LIM XIZMATLARI MARKETINGINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI”.....	65
16. Nasirova Marxabo Normurodovna “ALGORITM” MAVZUSINING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN DARS ISHLANMASI.....	68
17. Shonnavayeva Nilufar ADABIYOT DARSLARINI SAMARASINI OSHIRISHDA KOGNITIV VA AFFEKTIV YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH.....	73

MUALLIM УЧИТЕЛЬ TEACHER

Xoliqov Lazizjon Maxmud O'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti

HAMJIHATLIK-BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2020-SI-6>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hamjihatlik mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda hamjihatlikning diniy va dunyoviy asoslari va uning O'zbekistonda ta'minlanayotganligining dolzarb masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ahillik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, do'stlik, osoyishtalik, barqarorlik, ezgulik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik.

Халиков Лазизжон Махмуд угли

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
2-й курс магистратуры факультета социальных наук

ОСНОВА СОЛИДАРНОСТИ-УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена теме солидарности, в которой анализируются религиозные и светские основы солидарности и актуальные вопросы ее реализации в Узбекистане.

Ключевые слова: гармония, солидарность, сотрудничество, дружба, мир, стабильность, доброта, межнациональное согласие, религиозная терпимость.

Khalikov Lazizjon Mahmud oglı

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

2nd year of master's degree of the Faculty of Social Sciences

SOLIDARITY FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article is devoted to the topic of solidarity, which analyzes the religious and secular foundations of solidarity and current issues of its implementation in Uzbekistan.

Keywords: harmony, solidarity, cooperation, friendship, peace, stability, kindness, interethnic harmony, religious tolerance.

*Qaysi bir ishda hamjihatlik va yaqinlik bo'lsa
O'sha ishdan manfaat olinadi
Yusuf Xos Hojib*

O'tmishga nazar tashlasak, qay bir millatda ahillik, birdamlik, hamjihatlik singari insoniy fazilatlar qaror topgan bo'lsa, o'sha yurt gullab yashnaganligini guvohi bo'lamiz. Agarda buning aksi bo'lsa, qay bir jamiyatda o'zaro nifoq, adovat va ichki nizolar hukm sursa o'sha mamlakatning rivojlanishdan ortda qolishi azaliy haqiqatdir. Demak taraqqiyotni ko'zlagan har bir jamiyat o'zaro birdamlikni yo'qotmasligi lozim. Bizning muqaddas dinimizning maqsadi ham insonlar bilan birlgilikda hamjihat va ahil bo'lib yashashlikka targ'ib qilguvchi muqaddas din desak mubolag'a bo'lmaydi. Alloh taolo Qur'oni Karimda insonlarni hamjihat va inoq bo'lib hayot kechirishga targ'ib qilgan. Moida surasida Ollo shunday marhamat qilganki, ezgu taqvo yo'llarida hamkorlik qiling, hamjihat bo'ling, adovat, hasat, dushmanlik ishlarida bir-biringiz bilan hamkorlik qilmang deya insonlarni ogohlantiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlik masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan beshinchi yo'nalishi ushbu masalaning mamlakatimiz davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Hozirgi vaqtida diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtafiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olimlarimizdan Zamoshshariy, Moturudiy, Imom al-Buxoriy va boshqa buyuk olimlarimiz payg'ambarimizning hadislaridan kelib chiqib, ezgu va yaxshi amallarda hamkor bo'lган insonga, hamjihat bo'lib hayot kechirgan insonga Ollohnning roziligi, jannati bo'ladi deb kitoblarida yozib qoldiradilar.

Ma'lumki, tinchlik va osoyishtalik Alloh taoloning insoniyatga bergan oliy ne'matidir. Mamlakatimiz istiqlolga erishgan kundan boshlab tinchlik-totuvlik davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.


Ba'zida ko'cha-ko'yda, bozorlarda, boshqa jamoat joylarida insonlar arzimas sabablar bilan bir-birlarini ranjitayotganliklarini guvohi bo'lamiz. Shunday holatda insonlar orasida hamjihatlik, ahillik yo'qoladi. Hamjihatlik tuygusi tark etgan millatni yengish, uning ma'naviy olami, dunyoqarashini egallash oson bo'ladi. Shunday ekan, insoniyat tinchligi va barqarorligini ta'min etuvchi hamjihatlik tuyg'usini saqlab qolish, boshqalarga nisbatan samimi kayfiyatda bo'lish har bir musulmonning burchidir. Zero, har birimiz bir ota va bir onaning farzandidurmiz.

Yaponiyalik olim Shen Vashanabekning fikricha, milatlararo munosabatlar bilan bog'liq muammolarni yechishida uch xil yo'l mavjud. Birinchi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarga xos bo'lib, u iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, turli etnik guruxlarning moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga asoslanadi. Iroq, Afg'oniston, sobiq Yugoslaviya kabi mamlakatlarda namoyon bo'lган ikkinchi yo'l zo'rlikka tayanishi va har qanday milliylikni bostirishga intilishi bilan ajralib turadi. Uchinchi yo'lning eng yorqin timsoli O'zbekiston bo'lib unda millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda milliylik va umuminsoniylikning eng yaxshi jixatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviyat, ta'lim, mehr muruvat kabi qadriyatlar negizi asoslanib, siyosat olib boriladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida qayd etilgani nazariya va amaliyot shakllaridan farq qilgan O'zbekiston milliy siyosatining moxiyati I.A. Karimovning "Har qanday

millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday millat birlikning uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi," - degan so'zlarida o'zining yorqin ifodasini topgan, deyish mumkin.

Insonlar o'rtasidagi hamjihatlikka, yaxshi munosabatlarga putur yetkazuvchi illatlardan biri hasaddir. O'zidan bir daraja yuqori bo'lgan birodarini ko'rolmaslik insonda hasad tuyg'usini uyg'otishi mumkin. Natijada, o'rtada birdamlik yo'qoladi. Demak, hasad insonlar va jamiyat uchun katta xatar ekan. Biz bu va boshqa ma'naviy nuqsonlardan uzoq bo'lish barobarida qalbimizni baxillik singari illatlardan asrashimiz lozim. Shundagina ko'ngillarda xotirjamlik, el-u yurtda ezgu amallar ko'payadi, aholi o'rtasida ahillik mustahkamlanadi. Imom Tabaroniy roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisda, payg'ambar alayhissalom modomiki hasad qilishmasa odamlar o'rtasida yaxshilik bardavom bo'ladi deb marhamat qilganlar. Chindan ham, agar odamlar bir-birlariga hasad qilishmasa oralaridagi yaxshilik yanada ziyoda bo'ladi. Ezgulik hukm surgan jamiyatning ertasi nurafshon bo'lishi shubhasiz. Shunday ekan, musulmonlarning hamjihatligiga putur yetkazuvchi illatlardan bo'lgan hasad dardining qalbga tushishidan ehtiyyot bo'lish lozim.

Buyuk bobokalonomiz, o'z zamonasining mutasavvuf olimlaridan bo'lgan, So'fi Olloyor hazratlari o'zlarining "Sabot-ul ojizin" kitoblarida shunday deganlar: "Ollohnning buyrug'idan toysa nogoh, birodarlik o'shaldir qilsang ogoh" deydilar.

Buni bir necha asr oldin aytgan bo'lsalar ham, go'yoki bugun, hozirgi davr insonlari uchun aytganlar deya tahlil qilsak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni bugun kim jamiyatda buzg'unchilik qilayotgan bo'lsa, yoki buzg'unchilarni qo'liga, ularni girdobiga, qo'shtirnoq ichida ularni qo'g'irchog'iga aylanayotgan bo'lsa, yoki ularni fitnalariga uchib, aldanib qolayotgab bo'lsa, atrofida turgan insonlar uni ogohlantirmoqligi, qilib turgan qilmishidan qaytarmoqligi lozimligini So'fi Olloyor hazratlari aytib o'tadilar. Zero, bugungi kunda buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishimiz ham ularga nisbatan bizning qanchalik do'st ekanimizni, ular bilan ahillik va birdamlikda va eng muhimi hamjihatlikda yashayotganligimizni ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда барпо етамиз. T.: "O'zbekiston" – 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 y., 28 (6722)-son.
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'saag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997,
4. Diniy bag'rikenglik tamoyillari yoshlar talqinida. Talabalar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: "Movarounnahr", 2015.
5. Ubaydullayev R. Bekmurodov M. Prioritet lichnostnogo razvitiya Pravda Vostoka, 2004,



Tadqiqot.uz



СЕРТИФИКАТ

Noligov Lazizjon Maxmid Q'g'li

«Muallim \ Учитель \ Teacher»

методик журналида илмий мақоласи
Эълон қилингани учун СЕРТИФИКАТ
билин тақдирланди.

01.10.2020

